



## TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar - may*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 525** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyunga nisbatan **2 503** taga kamaygan (o'sish sur'ati **84,4** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **165** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 360** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- may oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **28797,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-may oyiga nisbatan **112,7** % ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **11605,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **17192,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **120,3** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **717,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,3** %) tashkil etdi.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar .</b>	<b>28 797,6</b>	<b>112,7</b>	<b>11 605,3</b>	<b>124,7</b>	<b>17 192,4</b>	<b>120,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	2 621,0	104,0	454,6	119,7	2 166,4	115,0
Bektemir	1 067,6	112,6	193,0	86,0	874,6	137,3
Yunusobod	3 228,5	104,8	1 431,6	119,5	1 796,9	108,5
Mirzo-Ulug'bek	2 090,2	117,4	931,6	139,7	1 158,6	118,2
Mirobod	2 195,9	114,7	1 149,5	120,3	1 046,4	124,0
Shayxontohur	2 922,3	118,8	1 505,7	142,2	1 416,6	114,9
Olmazor	2 321,6	106,0	982,8	100,8	1 338,7	125,1
Sergeli	1 465,5	122,8	824,4	141,6	641,0	119,2
Yakkasaroy	2 798,3	121,5	1 149,0	163,7	1 649,3	117,0
Yashnobod	2 521,2	116,0	970,6	123,5	1 550,5	126,9
Yangihayot	400,4	124,9	203,3	151,0	197,1	120,5
Chilonzor	5 165,2	110,9	1 809,0	110,1	3 356,2	126,6

2023- yilning yanvar – may oylarida 2022- yilning yanvar- may oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**124,9%**), Sergeli (**122,8%**), Yakkasaroy (**121,5 %**) va Shayxontohur (**118,8%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar - may, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,7 %** ni yoki **28 797,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar – may oylari)



2023- yilning yanvar - fevral oyida o'sish sur'ati 109,4% ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **17,9 %** bilan **5 165,2 mlrd.** so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,4 %** bilan **400,4 mlrd.** so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **17192,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – may oylariga nisbatan **120,3** % ga kao'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **59,7** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – may oylariga nisbatan **124,7** % ga o'sdi va **11 605,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **40,3** % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar      ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**19,5 %**), Uchtepa (**12,6 %**) va Yunusobod (**10,5 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **40,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**15,6 %**), Shayxontohur (**13,0 %**), Yunusobod (**12,3 %**), Mirobod (**9,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>9 705,0</b>	<b>109,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	8 902,8	101,3
Bektemir	18 963,6	103,4
Yunusobod	8 766,0	102,4
Mirzo-Ulug'bek	6 451,2	114,0
Mirobod	14 658,7	112,0
Shayxontohur	8 090,5	116,9
Olmazor	5 861,1	103,4
Sergeli	8 985,0	111,1
Yakkasaroy	21 896,0	118,2
Yashnobod	8 657,9	111,3
Yangihayot	2 461,2	117,1
Chilonzor	18 961,8	108,9


2023- yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 9 705,0 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,1 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**21 896,0** ming. so'm), Bektemir (**18 963,6** ming. so'm) va Chilonzor (**18 961,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **717 392,9** mln. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar - may oylariga nisbatan **2,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **657 646,7** mln. so'mni (**126,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **59 746,3** mln. so'mni tashkil etdi (**106,5 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



## Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar- may oylariiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- may oylariiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- may oylariiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar.</b>	<b>717 392,9</b>	<b>124,2</b>	<b>657 646,7</b>	<b>126,2</b>	<b>59 746,3</b>	<b>106,5</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	80 732,6	143,1	80 732,6	4,0 marta	-	-
Bektemir	208 105,1	2,5 marta	148 390,0	2,1 marta	59 715,2	106,5
Yunusobod	118 115,7	169,7	118 115,7	121,5	-	-
Mirzo-Ulug'bek	98 441,6	164,3	24 676,1	31,7	-	-
Mirobod	27 815,9	85,6	27 815,9	567,7	-	-
Shayxontohur	117 424,3	2,5 marta	117 424,3	211,6	-	-
Olmazor	13 300,9	54,7	13 269,8	70,6	31,1	155,5
Sergeli	22 781,9	89,0	22 781,9	168,8	-	-
Yakkasaroy	11 675,7	27,4	11 675,7	72,5	-	-
Yashnobod	15 396,8	20,2	15 396,8	39,5	-	-
Yangihayot	-	-	-	-	-	-
Chilonzor	3 602,3	6,6	3 602,3	24,2		

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.












2023-yilning yanvar - may oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **657 646,6** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**287 601,9** mln.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	287 601,9
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	50 863,1
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	70 381,6
	<b>Tovuq go'shti</b>	73 560,8
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	41 616,8
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	18 449,2
	<b>Tuxum</b>	22 539,7
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	1 011,5
	<b>Ziravorlar</b>	46 537,0
	<b>Tuzlamalar</b>	19 185,9
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	10 196,6
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	15 702,5

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar – may oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **59 746,4** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **49 004,4** mln.so‘m, qo‘y va echkilar – **9 446,2** mln. so‘mni, otlar – **1 264,6** mln. so‘mni, parrandalar – **31,2** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	39 056,7
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	4 084,2
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	5 863,5
	Qo‘ylar	9 193,3
	Otlar	1 264,6
	Echkilar	252,9
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	16,8
	Tovuqlar	14,4
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 465** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyun holatiga nisbatan **1 766** taga kamaygan va o‘shir sur‘ati **71,7 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **159** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 306** tani tashkil qildi.

2023- yilning yanvar – may oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **8,6 %** ni tashkil etib, **2 720,9** mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,8 %** ga o‘tdi. Bunda savdo aylanmasining **64,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 720,9</b>	<b>109,8</b>	<b>972,0</b>	<b>121,0</b>	<b>1749,0</b>	<b>127,7</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	84,3	132,3	0,3	35,1	84,0	163,4
Bektemir	54,4	107,1	28,6	137,9	25,8	105,0
Yunusobod	382,7	108,9	127,0	136,6	255,7	121,1
Mirzo-Ulug‘bek	259,1	91,2	18,9	108,4	240,3	110,3
Mirobod	203,1	99,4	30,8	123,4	172,3	117,5
Shayxontohur	677,8	111,5	482,5	109,4	195,3	143,2
Olmazor	165,0	123,5	10,9	55,2	154,1	165,7
Sergeli	224,5	156,8	172,7	165,4	51,9	163,8
Yakkasaroy	205,2	87,2	16,0	110,6	189,2	104,9
Yashnobod	214,1	120,5	61,1	116,8	153,1	149,3
Yangihayot	42,4	99,4	0,0	0,0	42,4	122,2
Chilonzor	208,3	112,9	23,3	164,8	185,0	132,9



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **10 545,2** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **109,4** % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **4 664,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **123,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **5 880,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **106,1** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>10 545,2</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	348,3	3,3
Bektemir	466,8	4,4
Yunusobod	1 131,0	10,7
Mirzo-Ulug'bek	475,3	4,5
Mirobod	709,6	6,7
Shayxontohur	994,9	9,4
Olmazor	99,9	0,9
Sergeli	3 913,8	37,1
Yakkasaroy	961,4	9,1
Yashnobod	566,1	5,4
Yangihayot	346,5	3,3
Chilonzor	531,6	5,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**3 913,8** mlrd. so'm), Yunusobod (**1 131,0** mlrd. so'm) va Shayxontohur (**994,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshket shahar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **55 767,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,0** % ga o‘sd.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **36 591,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,3** % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **65,5** % ni tashkil qildi.




# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bektemir (**13,0 b.**), Yunusobod (**8,9 b.**) va Sergeli (**8,8 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **15459** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun holatiga nisbatan **520** taga kamaygan, o'sish sur'ati **96,7 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **249** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **15210** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar .</b>	<b>55 767,3</b>	<b>112,0</b>	<b>19 175,9</b>	<b>127,3</b>	<b>36 591,4</b>	<b>105,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	3 438,0	106,1	298,4	131,8	3 139,5	104,2
Bektemir	642,6	113,8	49,3	15,1 marta	593,3	105,6
Yunusobod	5 073,4	117,2	1 827,1	138,9	3 246,3	107,7
Mirzo-Ulug'bek	4 692,8	106,1	1 040,7	124,6	3 652,1	101,8
Mirobod	6 068,7	104,2	1 122,0	105,2	4 946,7	104,0
Shayxontohur	3 283,0	116,7	866,6	131,2	2 416,4	112,3
Olmazor	8 603,5	113,1	3 825,2	116,4	4 778,3	110,6
Sergeli	2 506,1	129,1	1 246,4	2,3 marta	1 259,6	90,2
Yakkasaroy	6 657,2	109,7	2 807,8	140,1	3 849,4	94,8
Yashnobod	7 385,6	121,2	3 906,3	135,8	3 479,3	108,1
Yangihayot	488,6	122,2	141,0	161,5	347,7	111,2
Chilonzor	6 927,8	106,3	2 045,0	95,0	4 882,8	111,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 71-202-88-21 (20)**